

“YASHIL IQTISODIYOT” TAMOIYILLARINI KENG JORIY ETISH ASOSIDA KORXONALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Yusupov Bekzod Ulug'bekovich

Anatatsiya: Maqolada korxonalarni barqaror rivojlantirishning mohiyati va mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati o'rganilib, muayyan tizimga keltirilgan; Korxonalarni barqaror rivojlantirishda “Yashil iqtisodiyot”ning ahamiyati va tashkiliy-institutsional asoslari bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan; “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy etish asosida korxonalarni barqaror rivojlantirish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. yashil iqtisodiyot, tabiat, imkoniyat, savdo imkoniyatlari, ekologik xizmat, foydalanish, savdo-sotiq, korxonalar, tashkilot, muassasa, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В данной статье говорится о важнейших вопросах устойчивого развития предприятий, наиболее важных и актуальных проблемах устойчивого развития предприятий в нашей стране сегодня, предложениях и рекомендациях, подготовленных в результате изучения опыта развитых стран по устранению этих проблем.

Ключевые слова. зеленая экономика, природа, возможность, торговые возможности, экологическая услуга, использование, торговля, предприятие, организация, институт, экономическая стабильность, экономический рост.

Bugungi kunda korxonalar barqaror rivojlanishning yangi tendensiyalari raqamli, yashil va innovatsiya iqtisodiyotlarining bir-biriga to'g'ri kelishuvi nuqtasida paydo bo'lmoqda. Yurtimizda bu sohada olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarga to'xtalsak korxonalarni yashil iqtisodiyot orqali rivojlantirishda **energiyani tejash** hamda **energiya**

samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra:

sanoat korxonalarida energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish, yangi zamonaviy, innovatsion, energiya samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan energiya tejovchi, shu jumladan xorijiy texnologiyalarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlashga qaratilgan istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish choralari ko'rish;

issiqlik ta'minoti tashkilotlari hamda kommunal sohada energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish;

qishloq xo'jaligi, transport hamda qurilish sohalarida ixtiyoriy va majburiy energiya auditini o'tkazish hamda ularning energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarini ishlab chiqish hamda bajarilishini ta'minlash;

2026-yilga qadar idora, tashkilot hamda korxonalarining bino hamda inshootlari uchun sarflanayotgan elektr energiyasining kamida 25 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan qoplash choralari ko'rish maqsadlari belgilab olindi.

Energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirishning asosiy tashkiliy chora-tadbirlari:

a) sanoat korxonalarida:

har bir ishlab chiqarish sexida zaruratga qarab energiya resurslarini hisobga olish tizimini shakllantirish (texnik nazorat hisoblagichlarini o'rnatish);

ishlab chiqarish korxonalarida belgilangan tartibda energiya auditi o'tkazilishini ta'minlash va uning natijalari asosida ishlab chiqarishda energiya samaradorligini

oshirish (ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish dasturlari) bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

sohaning korxonalar hamda tashkilotlarida foydalanishda bo'lgan ayrim uskunalarning uchun yoqilg'i-energetika resurslari sarfining progressiv me'yorlarini aniqlash va joriy etish;

energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirishning asosiy elementlarini, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali energiya tejash hamda energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish;

korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarf qilinadigan yoqilg'i-energetika resurslarini me'yorlashni tashkil etish;

b) issiqlik ta'minoti tashkilotlari hamda kommunal sohada:

sohaning korxonalar hamda tashkilotlarida foydalanishda bo'lgan ayrim uskunalarning uchun yoqilg'i-energetika resurslari sarfining progressiv me'yorlarini aniqlash va joriy etish;

yagona issiqlik dispetcheri orqali markazlashgan issiqlik ta'minoti tizimlarini boshqarishni joriy qilish;

issiqlik ta'minoti sohasidagi tarif siyosatini energiya resurslarini iqtisod qilish nuqtai nazaridan takomillashtirish, shu jumladan issiqlik iste'molchilarini issiqlik ta'minoti tashkilotlari bilan ikki qisimli tariflar asosida hisob-kitob qilishga o'tkazish, iste'molchilarda issiqlik energiyasi (issiq suv) sarfini o'lchash vositalari to'liq o'rnatilishini ta'minlash;

qozonxonalarni modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish, samaradorligi past bo'lgan qozonxonalarni bosqichma-bosqich foydalanishdan chiqarish, uzluksiz gaz ta'minoti mavjud hududlarga kogeneratsion gaz turbinali uskunalardan foydalangan holda, issiqlik yukini samarali kogeneratsiyaga o'tkazish orqali issiqlik ishlab chiqarish uchun yoqilg'i sarfini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

korxonalarda ko'rsatilayotgan xizmatlar hamda ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga sarf qilinadigan yoqilg'i-energetika resurslarini me'yorlashni tashkil etish;

v) qishloq xo'jaligida:

zamonaviy, yuqori samarali hamda resurs tejaydigan texnologiyalardan foydalanish, texnik va texnologik modernizatsiya qilinishiga erishish hamda qishloq xo'jaligi mashinalarini yangilash asosida energiya samaradorligini oshirish;

energiya samarador hamda energiya tejankor texnologiyalarni hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini joriy etish orqali ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini pasaytirish;

sohaning korxonalar va tashkilotlarida foydalanishda bo'lgan ayrim uskunalarning uchun yoqilg'i-energetika resurslari sarfining progressiv me'yorlarini aniqlash hamda joriy etish;

qishloq xo'jaligi korxonalar hamda tashkilotlarida foydalanilgan energiya resurslarining hisobga olish tizimini to'laqonli tashkil etish (hisoblagichlarni to'liq o'rnatish), ekin maydonlarini sug'orish uchun foydalaniladigan nasoslarda iste'mol qilingan elektr energiyasini nazorat qilish hamda hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga ega bo'lgan suvni nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish hamda ularni integratsiyalashni ta'minlash;

g) transport sohasida:

barcha turdagi transport vositalari uchun sarf qilinadigan energiya resurslari me'yorlarini ishlab chiqish;

sohaning korxonalar va tashkilotlarida foydalanishda bo'lgan ayrim uskunalarning uchun yoqilg'i-energetika resurslari sarfining progressiv me'yorlarini aniqlash hamda joriy etish;

energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy hamda mahalliy investorlarning mablag'larini jalb etish choralarini ko'rish;

d) qurilish sohasida:

bino hamda inshootlar qurilishida hamda aholi turar joylarida energiya samaradorligini oshirish va energiyani tejashning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va joriy etish;

energiyani tejash hamda energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari hamda xorijiy hamda mahalliy investorlarning mablag'larini jalb etish choralarini ko'rish;

e) davlat boshqaruvi idoralari faoliyati hamda xizmat ko'rsatish sohasida:

energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish sohasida hududiy (viloyat, tuman va shahar) hamda idoraviy dasturlarni, shuningdek, davlat tashkilotlarida energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish sohasida yillik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash;

elektr energiyasi, tabiiy gaz hamda markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti hamda (yoki) boshqa energiya resurslari ta'minotida hisobga olish tizimining qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash;

3.1-jadval

2024 — 2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari

Tashkilotlar nomi	Kutilayotgan yoqilg'i-energetika resurslarini tejash ko'rsatkichlari					
	tabiiy gaz (mln kub.m)			elektr energiyasi (mln kVt.s)		
AMI:	2024	2025	2026	2024	2025	2026

z” AJ	19,52	18,74	17,62	23,26	24,20	24,14	
AJ	9,20	8,83	8,30	11,10	16,04	16,02	
minot” AJ	0,29	0,28	0,26	0,07	0,07	0,07	
r stansiyalari” AJ	680,02	694,49	652,82	79,47	194,20	192,10	
oat” AJ	18,71	17,96	16,88	12,75	12,37	12,00	
K” AJ	2,18	1,37	1,34	24,29	26,17	26,12	41
K” AJ	1,40	1,34	1,26	7,60	19,57	19,53	14
metallurgiya	0,80	0,77	0,72	9,80	10,71	10,62	
hiranglimetall”	0,20	0,19	0,18	0,17	0,17	0,16	
at” AJ	1,16	1,11	1,05	4,24	4,11	3,99	
temir yo‘llari”	0,09	0,09	0,08	0,41	0,40	0,39	
at” uyushmasi	0,01	0,01	0,01	0,41	0,40	0,39	
ilishmateriallari”	15,20	14,59	13,72	10,00	17,50	16,30	
unal xizmat (issiqlik ari)	5,30	5,09	4,78	2,52	2,52	2,52	
sanoat”	2,37	2,27	2,14	2,47	2,40	2,33	
anoat”	0,08	0,08	0,07	0,06	0,06	0,06	

Korxonalar barqaror rivojlanish yo'llaridan bir hisoblangan resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun 2 turdagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab olishimiz zarur, ya'ni:

– **korxonalar “yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish;**

– **korxonalar uchun tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish;**

Korxonalar “Yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish:

a) barcha korxonalar barqaror rivojlanishi uchun “yashil” iqtisodiyot bo'yicha tajriba, ma'lumot va resurslarni birlashtirish orqali korxonalar o'rtasida muvofiqlashtirishni yaxshilash, samarali institutsional tuzilmani yaratish — haqiqiy ma'lumotlarga asoslanib, tahlil hamda monitoring o'tkazish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida atrof-muhit va iqtisodiyot bo'yicha ma'lumotlarni yagona bazaga birlashtirish;

b) korxonalar barqaror rivojlanish strategiyalarini “yashil” rivojlanish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish — moliyalashtirish uchun asosiy “yashil” infratuzilmalarni aniqlaydigan xarajatlar smetasi yoki investitsiya rejalarini qamrab oladigan tarmoq strategiyalarini “yashil” iqtisodiyot hamda “yashil” rivojlanishning maqsadlari va strategik doiralari bilan muvofiqlashtirish;

v) iqtisodiy faoliyatni ekologik tartibga solish bilan uyg'unlashtirish:

korxonalar o'rtasida “yashil” iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ekologik tartibga solish choralari birlashtirish (axborotdan foydalanish, jamoatchilik ishtiroki, “ifloslantiruvchi to'laydi” tamoyili, ekologik adolat va boshqalar);

iqtisodiyotdagi ta'siri atrof-muhitga zararli bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy tarmoqlar uchun atrof-muhitni strategik baholash tizimini ishlab chiqish;

g) korxonalarda “yashil” iqtisodiyotni modellashtirish hamda prognozlash vositalarini ishlab chiqish — iqtisodiyot va atrof-muhit o‘rtasidagi uzoq muddatli o‘zaro ta’sirlarni prognozlash uchun iqtisodiy modelni yaratish;

d) “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash hamda boshqarishni takomillashtirish;

e) Iqlim o‘zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish hamda tekshirishning zamonaviy tizimini (MRV) joriy etish — barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi O‘zbekistonning monitoring, hisobot va tekshirish tizimini (MRV) modernizatsiya qilish hamda takomillashtirish, davlatning iqlim sohasidagi siyosatini xalqaro hamjamiyat tomonidan moslashtirish hamda qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish;

j) fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining “yashil” iqtisodiyot to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishini osonlashtirish — ko‘plab korxonalar tomonidan atrof-muhit to‘g‘risidagi o‘z ma’lumotlarini nashr etilishiga ko‘maklashish maqsadida ekologik masalalarga doir axborotdan foydalanishni osonlashtirish;

z) “yashil” rivojlanish bo‘yicha davlat siyosatini baholash — “yashil” rivojlanish hamda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish siyosatini tizimli baholab borish;

i) “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni amalga oshirish bo‘yicha korxonalar fuqarolar oldida muntazam hisobot berib borish — “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning borishi, harakatsizlik bilan bog‘liq xavf-xatarlar, ijro etuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy chora-tadbirlar to‘g‘risida korxonalar fuqarolarga muntazam hisobot berish;

k) kelajakdagi muammolarni hal qilish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda jamoalarning salohiyatini mustahkamlash — QTE texnologiyalarini aniqlash, ishlab chiqish va amalga oshirish, quyosh, shamol hamda gidroenergetika sohalarida QTE yo‘nalishidagi investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini topish orqali energetika xavfsizligini oshirish;

l) xususiy sektor hamda fuqarolik jamiyatining ishtirokini kuchaytirish — jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari o'rtasida “yashil” rivojlanish masalalari bo'yicha fikr almashishni takomillashtirish va rag'batlantirish.

Korxonalar uchun tashqi hamda ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish:

a) korxonalar “yashil” iqtisodiy infratuzilmalariga katta miqdordagi davlat kapitalini yo'naltirish — davlat kapital mablag'larini bosqichma-bosqich “yashil” iqtisodiyot infratuzilmasiga yo'naltirish, shuningdek, infratuzilmaga bo'lgan ehtiyojlarni hamda moliyalashtirishdagi bo'shliqlarni aniqlash;

b) hukumat “jigarrang” iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar va subsidiyalardan voz kechish — qazilma yoqilg'i energiyasini bevosita hamda bilvosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat subsidiyalaridan voz kechish;

v) soliq yukini takomillashtirish, ya'ni, korxonalar hamda uy xo'jaliklaridan atrof-muhitning ifloslanishiga va resurslarning ortiqcha sarflanishiga olib keladigan faoliyatga o'tkazish:

yoqilg'i solig'i hamda ekologik toza yoqilg'i hamda resurslardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash kabi stimullarni yaratish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish;

“yashil” texnologiyalarga hamda infratuzilmaga investitsiya kiritish orqali “yashil” ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish;

g) atrof-muhit ifloslanishi uchun belgilangan to'lovlar tizimini xususiy sektor uchun qulayroq qilish nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish hamda shu bilan birga “yashil” texnologiyalarni joriy etish uchun ko'proq rag'batlantirish choralarini belgilash:

ifloslanishni kamaytiruvchi texnologiyalarga investitsiyalarni kiritishni yanada rag'batlantirish maqsadida ifloslanish uchun belgilangan yig'im stavkasini oshirish hamda ifloslantiruvchi moddalar ro'yxatini kengaytirish orqali atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun yig'im tizimini takomillashtirish;

“ifloslantiruvchi — to'laydi” mexanizmini takomillashtirish orqali “yashil” texnologiyalarga investitsiyalarni rag'batlantirish;

d) soliqlar va davlat xarajatlarining “yashil” iqtisodiyotga muvofiqligi hamda ta’siri to’g’risidagi ma’lumotlarni baholash, oshkor qilish uchun “yashil” budjet metodologiyasini joriy etish — “yashil” ustuvor yo‘nalishlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadigan soliqlar hamda davlat xarajatlari ulushini baholash uchun “yashil” budjet metodologiyasini joriy etish;

j) “Yashil” obligatsiyalar orqali “yashil” infratuzilmaga xususiy kapitalni jalb qilish — “yashil” moliyalashtirishni yanada kengroq targ‘ib qilish uchun rag‘batlantirish hamda arxitektura yaratish orqali xususiy sektorni “yashil” korxonalariga investitsiya kiritishga yo‘naltirish;

z) davlat korxonalarini “yashil” iqtisodiyot yetakchilariga aylantirish uchun davlat balansidan foydalanish — “yashil” investitsiyalar hamda barqaror standartlar va sertifikatlash bo‘yicha rejalashtirish, qabul qilish yoki hisobot berishni rag‘batlantirish maqsadida davlat korxonalarini ustidan davlat nazorati amaliyotini takomillashtirish.

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillari doirasida korxonalarining barqaror rivojlantirishini ta’minlash uchun qo‘shimcha usullar quyidagilardir:

Energiya samaradorligi: Energiya samaradorligini oshirish hamda energiya xarajatlarini kamaytirish maqsadida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan amallar va texnologiyalarni amalga oshirish. Bu, qurilmalarni yangilash, jarayonlarni optimallashtirish va quyosh yoki shamol energiyasini kabi qayta ishlash energiya manbalari foydalanishini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy etish asosida korxonalarining barqaror rivojlantirish yo‘llari odatda atrof-muhitga ziyonlarni minimalizatsiyalash, resurslarni saqlash, va ekologik amallarni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu, qayta ishlash energiyasi manbalari amalga oshirish, resurslar foydalanishini optimallashtirish, yashil texnologiyalarni va ishlab chiqarish jarayonlarini qabul qilish, ekologik mahsulotlar va xizmatlarga investitsiyalarni olib borish, moddiy resurslar va ta’minot zanjirini barqaror rivojlantirishni amalga oshirish, hamda atrof-muhitni saqlashga yo‘naltirilgan jamoat hamda hamkorlik shartnomalarida

ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Barcha narsa, umumiy ravishda, iqtisodiy o'sishni atrof-muhit javoblilikiga bilan tartibga solish va uzoq muddatli barqarorlik yaratishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli Qarori

3. IHTT ta'rifiga ko'ra "yashil o'sish" iqtisodiyotni "yashil iqtisodiyot"ga transformatsiyalashning kompleks strategiyasi hisoblanadi.

4. Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. –Toshkent.: "Universitet", 2020. -262 b.

5. <https://yearbook.enerdata.net/total-energy/world-consumption-statistics.html> sayt ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

6. <http://ggi.org/site/assets/uploads/2018/10/Presentation-by-Mr.-Kyung-ho-Lee-Director-of-the-New-and-Renewable-Energy-Policy-Division-MOTIE.pdf>

7. <https://www.cleanenergywire.org/factsheets/germanys-climate-action-programme-2030>